




Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-aprel


2018 yil yanvar-aprel oylarida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi 2693,7 mlrd. so'mni, shundan, qishloq joylarda 707,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 105,6 % ga oshdi.

Asosiy xizmat turlari bo'yicha xizmatlar hajmining solishtirilishi, mlrd.so'm




Eng yuqori xizmatlar hajmi savdo xizmatlari (909,8 mlrd. so'm), transport xizmatlari (608,9 mlrd. so'm), moliyaviy xizmatlar (255,9 mlrd. so'm), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (210,9 mlrd. so'm)ga to'g'ri keladi. Qolgan xizmat turlarida esa, shaxsiy xizmatlar (142,4 mlrd. so'm), ta'lim sohasidagi xizmatlar (111,3 mlrd. so'm) va boshqa xizmatlar (454,5 mlrd. so'm)ni ko'rish mumkin.

2018 yil yanvar-aprel oylarida xizmatlar tarkibi, % da



Xizmatlar tarkibida savdo xizmatlari (33,8 %), transport xizmatlari (22,6 %), moliyaviy xizmatlar (9,5 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (7,8 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (4,1 %), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (3,1 %), va boshqa xizmatlar (19,1 %) ulushlarni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-aprel oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, % da



Xizmatlar sohasining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'atlari aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (121,1 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (119,6 %) moliyaviy xizmatlar (119,4 %), me'morchilik sohasidagi xizmatlar (115,4 %), va sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (112,6 %)ni tashkil etadi.

Farg'ona viloyat statistika boshqarmasi

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

Mas'ul: N.Sabirov

tel: (71) 230-87-28